

NEVROZ BUZILSHI VA DAVOLASHDA UMUMIY QONUNIYATLAR

Muxtorova Xakikat Karimjonovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda shaxslarda kuzatiladigan nevroz kasalligining turlari, qisqacha o'rganiladi. Nevrozning klinik belgilari, tashxis qo'yish, davolash hamda profilaktik ishlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: psixogen omillar, distimik buzilish, obessiv-kompulsiv buzilish

АННОТАЦИЯ

В данной диссертации кратко изучены виды неврозов, наблюдаемых у отдельных лиц. Приведены клинические симптомы невроза, диагностика, лечение и меры профилактики.

Ключевые слова: психогенные факторы, дистимическое расстройство, обессивно-компульсивное расстройство.

ABSTRACT

In this dissertation, the types of neuroses observed in individuals are briefly studied. Clinical symptoms of neurosis, diagnosis, treatment and preventive measures are given.

Keywords: psychogenic factors, dysthymic disorder, obsessive-compulsive disorder.

Nevroz, psixonevroz, nevrotik buzilish, (qadimgi yunon. νεῦρον «asab» dan yangi lot. *neurosis*) — uzoq davom etadigan funktsional psixogen buzilishlar majmuasi. Bunday buzilishlarning klinik tasviri astenik, o'rnashib qoladigan fikrlar yoki jazava belgilari, shuningdek, aqliy va jismoniy mehnat qobiliyatining vaqtinchalik pasayishi bilan ta'riflanadi. Turli hil hollarda psixogen omillar bu nizolar (ichki yoki tashqi), psixologik travmaga olib keladigan vaziyatlar ta'siri, stress yoki uzoq vaqt mobaynida emotsiyon va aqliy jarayonning zo'riqishi hisoblanadi. [1]

«Nevroz» termini hozirda Amerika Qo'shma Shtatlarida professional psixiatrik jamiyat tomonidan ishlatilmaydi. Amerika psixik buzilishlar diagnostik va statistik qo'llanmasining DSM-III 1980-yilda uchinchi nashridan boshlab «nevrozlar» bo'limi bekor qilindi. Misol uchun, depressiv nevroz o'rniga **distimik buzilish**, obessiv-kompulsiv nevroz o'rniga **obessiv-kompulsiv buzilish**, ipoxondrik nevroz o'rniga **ipoxondriya** kiritildi terminlari orqali DSM-IV holatida o'zgartirilgan. [2]

P. Pavlov o'zining fiziologik ta'limoti doirasida nevrozni noadekvat kuch va tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siri tufayli miya po'stlog'ida o'ta zo'riqish natijasida oliv nerv faoliyatining surunkali uzoq vaqt buzilishi deb belgilangan. XX asr boshlarida



«nevroz» klinik atamasini nafaqat odamlarga, balki hayvonlarga nisbatan ham qo'llash ko'p bahs-munozaralarga olib keldi.

Psixoanalitik nazariyalar nevrozni va uning alomatlarini asosan chuqur psixologik nizo natijasi sifatida ifodalaydi. Bunday nizo insonning asosiy ehtiyojlarini qondirishga to'sqinlik qiladigan va uning kelajagiga tahdid soladigan, inson unga qarshi kurashadigan, lekin yenga olmaydigan qolaversa, uzoq vaqt saqlanadigan ijtimoiy vaziyatlar sharoitida shakllanadi deb taxmin qilinadi.

Avsryalalik psixoanalitik Zigmund Freydning uzoq vaq iszlanishlari va kuzatishlari bo'yicha, nizolarni «Id»ning instinktning talablarni jamiyatdagi odobaxloq va me'yirlarni nazarda tutadigan «Super ego» tomonidan bostirilishidagi fundamental qarshiliklarda ko'rgan. [1]

Vegetotomirli distoniya — bu vegetativ asab tizimi faoliyatining buzilishidir.

Aqlga bo'ysunadigan va mushaklarni boshqaradigan somatik nerv tizimidan farqli o'laroq, vegetativ asab tizimi avtomatik ravishda ishlaydi va organizmning a'zolari va tizimlari faoliyatini ta'minlaydi. [1]

Nevrotik buzilishlarning ruhiy va jismoniy belgilari

- Emotsional tushkunlik (ko'pincha aniq sabablarsiz)
- Ijtimoiy aloqadagi muammolar
- Noadekvat o'zini baholash: past yoki haddan ziyod yuqori
- Tez-tez tashvish, qo'rquv hissi, «biron narsaning tashvishli kutilishi», fobiya, □ vahima hurujlari, vahimali buzilishlar.
 - Ko'pincha **sinizm** qayd qilinadi.
 - Kayfiyatning barqrorsizligi yani, tez-tez va keskin o'zgaruvchanligi.
 - Qo'zg'aluvchanlik (nevrastenia).
 - Stressga nisbatan yuqori sezuvchanlik — ahamiyatsiz stressli voqeaga odamlar umidsizlik yoki tajovuzkorlik bilan munosabat bildirishadi. □ Psixotravmatik vaziyatga ko'p to'xtalib qolish.
 - Ishlamoqchi bo'lganda tezda charchab qolish — xotira, e'tibor va fikrlash qobiliyatlari susayishi
 - Baland tovushlarga, yorqin nurlarga, harorat o'zgarishiga sezgirlik.
 - Uyquning buzilishi: odamning ortiqcha qo'zg'alganligi sababli uxbab qolish qiyin kechadi; uyqu yuzaki, tashvishlantiruvchi, tetiklik bermaydigan bo'ladi; ertalab ko'pincha uyquchanlik kuzatiladi.
 - Xavotirlar, qon bosimining pasayib ketishi tufayli bosh aylanishi va ko'z qorong'ulashishi.
 - Jismoniy og'riqni psixologik boshdan kechirish (psixalgiya), ipoxondriyagacha olib boradigan o'z sog'lig'iga haddan ortiq g'amxo'rlik.

- Ba'zan — libido va erektsiyaning pasayishi. [1]

Nevroz kasalligini davolash

Nevrozlarni davolashning ko'p usullari va nazariyalar mavjud. Nevrozni davosi antidepressantlar va trankvilizatorlar yordamida psixoterapiya va medikamentoz terapiyaga asoslanadi.

Nevroz va nevrotik reaktsiyalarni davolashning asosiy usuli psixoterapiya hisoblanadi. Hozirgi vaqtida psixoterapevtik yordamning ko'plab yo'naliishlari va usullari mavjud. Ular **patogenik** (nevrozning sabablari va uni shaxsda ushlanib turishi jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan) va **simptomatik** yoki yordamchi (ular faqat patogenik uslublar bilan birgalikdagina samarali bo'lib, o'zlari faqat alomatlarni yengillashtiruvchi vaqtinchalik ta'sir ko'rsatadi) turlarga bo'linadi. [6]

- Patogenetik uslubi psixodinamik, ekzistentsial, interpersonal, kognitiv, tizimli, integrativ, geshtalt-terapiyani o'z ichiga oladi.

- Simptomatik usublarga esa xulq-atvor, gipnoz, tana-yo'naltirilgan, ekspozitsion terapiya, nafas olish mashqlari, art-terapiya, musiqa terapiyasi va boshqalar kiradi.

Nevroz insonning tiklanadigan holati bo'lib, psixoterapevtik davolanishiga yaxshi bo'ysunadi. Dori-darmonli terapiya faqat psixoterapevtik jarayon uchun katalizator bo'lib, hech qanday holatda nevrozni davolashning asosiy shakli sifatida qaralmaydi. Kamdan-kam hollarda, inson shaxsiyatining o'sishi, nizoli vaziyat ahamiyatining yo'qolishi, avvalgi turmush tarziga qaytish va hokazolar tufayli nizoning hal bo'lishi natijasida nevrozdan mustaqil qutilish hollari ham qayd qilinadi. [6]

Obsessiv-kompulsiv buzilishda birinchi o'rindagi davolash sifatida kognitivxulq terapiyasi (KXT) va **SQUSI** (serotonin qayta ushlanishining selektiv ingibitorlari) yoki **klomipramin** guruhi antidepressantlarini qo'llash tavsiya etiladi. Kognitiv-xulq terapiyasidan tashqari, psixodinamik terapiya yoki psichoanaliz ham ishlatiladi, lekin ularning samaradorligi, KXT samaradorligidan farqli o'laroq, kam isbotlangan. KXT — bu obssesiv-kompulsiv buzilishda samaradorligi nazorat ostida o'tkazilgan tadqiqotlar bilan tasdiqlangan psixoterapiyaning yagona turidir. [1]

Obsessiv-kompulsiv buzilishni kognitiv davolashda adaptivlikka o'rgatish qo'llaniladi — bu texnikada terapevt bemorda qayta-qayta o'rnashib qolgan fikrlarni chaqirishga harakat qiladi, natijada bunday fikrlar bemor uchun xavflilik ahamiyatini yo'qotadi va xavotirning pasayishiga sabab bo'ladi deb taxmin qilinadi. Shuningdek javobni oldini olishning yashirin texnikasi ham ishlatiladi: terapeutlar bemorlarni adaptiv o'qitish davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'rnashib qolgan fikrlardan chalg'ish yoki saqlanishga o'rgatadi. Kognitiv nazariya tarafдорлари fikrlariga ko'ra, bunday buzilish insonning yoqimsiz, keraksiz o'ylari mavjudligi xususiyatlaridan kelib chiqadi: ba'zi odamlar uchun yoqimsiz fikrlar shu darajada jirkanch va zo'riqtiradigan

ta'sir ko'rsatadiki, ular bunday fikrlardan qochish yoki ularni bartaraf qilishga urinishadi. Bu sa'y-harakatlar fikrlarning o'rnashib qolishiga olib keladi, ular noqulaylikni bir muddat pasaytiradi va qayta-qayta takrorlanaveradi, qutilishga harakat qilish esa ular bilan bog'liq tashvishlarni yanada kuchayishiga sabab bo'ladi. [1]

Psixoanaliz metodi Nevrozda psixoanaliz ham qo'llaniladi. Ko'pgina psixoanalitik maktablar fikriga ko'ra, bemor o'z ziddiyatlarini tan olishi, o'zining shaxsiyati haqida aniqroq tasavvurlarga ega bo'lishi kerak. Psixoterapiyaning asosiy vazifasi bemorga nevroz rivojlanishiga olib kelgan barcha munosabatlar jamlanmasini tan olishga yordam berishdir. Psixoterapiyaning natijasi bemorga uning hayotiy tajribasi, bu tajriba asosida shakllangan atrofdagi odamlar bilan munosabatlar tizimini ziddiyatga kelgan vaziyat va kasallikning namoyon bo'lishi bilan bo'lgan nisbatini bemorga tushuntirishdan iborat. Nevrozni davolashda gipnoz va autogen mashg'ulotlar juda muhim o'rinni tutadi. Agar nevroz mavsumiy ruhiy tushkunlik sababli yuzaga kelgan bo'lsa, uni davolash va oldini olish uchun, quyoshli kunlar sayr qilish yoki nur bilan davolash ko'rsatiladi. [1]

TMS orqali davolash Transkranial magnit stimulyatsiya (TMS) yoki **Transkanial magnit stimulyatsiya terapiyasi** (TMS); Bu boshning ma'lum qismlaridan miyaga to'g'ridan-to'g'ri etib borish uchun ishlab chiqarilgan maxsus qurilma orqali magnit impulslarni kuchaytirish orqali miya hujayralarini rag'batlantiradigan davolashdir.

TMS usuli 1985 yildan beri qo'llanilib kelinmoqda va 2008 yilda FDA (Amerika oziq-ovqat va farmatsevtika idorasi) tomonidan klinik ma'qullangan. Bu qo'llash bilan bog'liq klinik tadqiqotlar tobora kuchayib borayotgan davolash turi. Bugungi kunda ushbu usulning mashhurligi ortib bormoqda. Erdem Psixiatriya, shuningdek, mutaxassis va tajribali xodimlari bilan TMS davolashda xizmatlarni taqdim etadi. [5]

Nevrozdan xalos bo'lish uchun qo'shimcha asoslangan umumiyoq tavsiysalar:

Avvallari nevroz belgilarisiz, umuman boshqa inson bo'lib yashab, endilikda birdan paydo bo'luvchi salbiy fikrlar yashashingizga xalaqit qilayotgan bo'lsa, terapevtga ko'riningiz kerak. Mutaxassis aynan qaysi jarohatlovchi voqeя nevrotik buzilishlar rivojlanishiga olib kelganini aniqlaydi hamda sizga vahima bilan kurashishga yordam beradi. Qolaversa, nevroz sodir bo'lishi juda kuchli bo'lmasa, muammoni boshqa usullar bilan hal qilishda samarali natijalar olish mumkin. [7]

1. Ochiq havoda ko'proq sayr qiling Hech bo'lmaganda kuniga 30 daqiqa. Hattoki 15 daqiqalik sayr ham o'zingizni yaxshiroq his qilishingizga ko'maklashadi.

2. Yaqin insonlar bilan suhbatlashing Qulflanib olmang! Tug'ishganlar va do'stlaringizga aynan nima sizni asabiyashishga majbur qilayotgani haqida gapiring.

Sizni qiyin daqiqalarda qo'llab turishlarini iltimos qiling.

4. Kofein va alkogol iste'molini cheklang Ular ham sizdagi xavotir va hissiy qo'zg'alishni oshiradi.

5. To'laqonli harakat qiling Vahima bilan kurashish uchun miyaga quvvat zarur. Nonushta, tushlik va kechki ovqatni o'tkazib yubormaslikka va jiddiy parhezlarni rad etishga harakat qiling.

7. Barcha nevrotik noxush hodisalarini yozib chiqing Bu bezovtalik yanada kuchayadigan vaziyatlarni tahlil qilishga yordam beradi. Qonuniyatlarini payqab, o'xshash holatlardan qochishingiz mumkin. [7]

REFERENCES

1. Фрейд З. Знаменитые случаи из практики. М.: Когито-Центр Ольшанский
- Д.А. Пять основных клинических случаев Фрейда / Психологическая газета
2. Britanica: "Nevroz". Qabul qilingan kuni: 2018 yil 13-iyul kuni Britannica: britannica.com.
3. Axmat о'g'li, D. S., & Sevinch, A. (2023). BEMORLARDA NEVROTIK HOLATLAR TAHLILI. Scientific Impulse, 1(8), 716-719.
4. Dursunov, S. (2022). TRIXOFAGIYA TURLARIDA KUZATILADIGAN SHAXS XUSUSIYATALARI VA MOYILLIKLARINI ANIQLASH. PEDAGOG, 5, 1(4), 63-65.
6. Narmetova, Y. K. (2016). Organization of the psychological support in the cardiology clinics. Theoretical & Applied Science, (7), 28-31.
7. Нарметова, Ю. К. (2022). Особенности психокоррекционного подхода при психосоматических заболеваниях (на примере ишемической болезни сердца). Gospodarka i Innowacje., 21, 258-261.
8. Нарметова, Ю. (2015). Психосоматик беморларда эмоционал холат бузилишлари ва уларга психологик ёрдам кўрсатишнинг ўзига хослиги. ЎзМУ хабарлари.
9. Nasirovna, M. R. (2022). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL DIAGNOSIS IN CLINICAL PRACTICE. Conferencea, 4-6.
10. Narmetova, Y., Melibayeva, R., Akhmedova, M., Askarova, N., & Nurmatov, A. (2022). PSYCHODIAGNOSTICS ATTITUDE OF THE PSYCHOSOMATIC PATIENTS'DISEASE.
11. Мелибаева, Р. Н. (2022). КЛИНИК АМАЛИЁТДА КОГНИТИВ ФУНКЦИЯЛАР ВА УЛАРНИНГ БУЗИЛИШЛАРИ ПСИХОДИАГНОСТИКАСИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 928-932.
12. Мелибаева, Р., & Абдиназарова, И. (2020). Тиббий психодиагностика: муаммо, мулоҳаза ва ечимлар.
13. Рашидович, Б. Т. (2022). НЕКОТОРЫЕ МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ДИАГНОСТИКИ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРЕОДОЛЕНИЯ ПОДРОСТКАМИ КРИЗИСНЫХ СИТУАЦИЙ ЖИЗНИ. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 3(12), 224-228.
14. HK Mukhtorova, NB Mukhamadieva, UT Rustamov The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research 2 (12 ...2020
15. Истамов М. Б. . (2023). НОВЫЕ ПОДХОДЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ПСИХИАТРИИ. БОШКАРУВ ВА ЭТИКА

КОЙДАЛАРИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЮРНАЛИ, 3(11), 19-24.
<http://sciencebox.uz/index.php/sjeg/article/view/8633>

16. MB Istamov. . (2023). NEW APPROACHES AND CURRENT RESEARCH IN THE FIELD OF PSYCHIATRY , BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI: BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI Vol. 3 No. (11), 13-18.
<http://sciencebox.uz/index.php/sjeg/article/view/8633>
17. IM Bahodirovich. . (2023). SHAXS XUSUSIYATI PATOLOGIYALI O'SMIRLARDA RUHIY FAOL MODDALAR SUISTEMOL XUSUSSIYATLARI. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY, 3(8), 5-8.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=O6jdxv sAAAAJ&citation_for_view=O6jdxvsAAAAJ:qjMakFHDy7sC
18. IM Bahodirovich. . (2023). XURUJSIMON SHIZOFRENIYA REMISIYASIDA DEPRESSIYA KLINIKASI VA DAVOLASH. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY, 3(6), 94-97.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=O6jdxv sAAAAJ&citation_for_view=O6jdxvsAAj:2osOgNQ5qMEC
19. ХК Мухтарова, М Б Истамов. . (2023). Актуальные Задачи Современной Судебной Психиатрии. Исследовательский журнал исследований травмы и инвалидности, 2(6), 187-193.
<http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/1034>
20. Х.К., М. ., & М.Б., И. . (2023). ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ИЗОЛЯЦИИ ПАЦИЕНТОВ ПРИ ШИЗОФРЕНИИ . Исследовательский журнал исследований травмы и инвалидности, 2(5), 206–209.
<http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/908>
21. Rustamov U.T, Tilavov M.T, Karimova S.SH, Istamov M.B, & Jo'raev Sh.J. (2023). Specific Characteristics And Prevalence of Mental Disorders in Oncological Diseases of The Lung And Gastrointestinal Tract. Journal of Advanced Zoology, 44(S4), 141–145. <https://doi.org/10.17762/jaz.v44iS4.2345>
22. Истамов Мирмухсинжон Баходирович. Vol. 49 (2024): Miasto Przyszłości Алкогольный Фактор В Криминальной Агрессии При Психопатологических Расстройствах